

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI  
SHAKLLANTIRISHDA FANLAR INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISH

Meyliyev Sobirjon Xolmurodovich

O‘zMPU Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari  
falsafa doktori (PhD)

Toshtemirova Ra‘no Baxtiyor qizi

O‘zMPU “Ta‘lim – tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim) “yo‘nalishi I- bosqich  
magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari va bu jarayonda fanlararo integratsiyaning o‘rni haqidagi fikrlar, tajribalar yoritilgan. Tadqiqotda matematika, ona tili, tarbiya va tabiiy fanlar darslarida iqtisodiy tushunchalarni singdirish usullari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy savodxonlik, integratsiya, boshlang‘ich ta‘lim, kompetensiya, iqtisodiy tarbiya, zamonaviy yondashuv.

**Abstract:** This article highlights the pedagogical foundations of forming economic literacy in primary school students and the role of interdisciplinary integration in this process. The research analyzes the methods of embedding economic concepts in Mathematics, Native Language, Education, and Natural Science lessons.

**Keywords:** economic literacy, integration, primary education, competence, economic education, modern approach.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье освещаются педагогические основы формирования экономической грамотности у учащихся начальных классов и роль междисциплинарной интеграции в этом процессе. В исследовании анализируются методы внедрения экономических понятий на уроках математики, родного языка, воспитания и естествознания.

**Ключевые слова:** экономическая грамотность, интеграция, начальное образование, компетенция, экономическое воспитание, современный подход.

Bugungi zamonaviy dunyoda har bir shaxs kundalik hayotda iqtisodiy tushunchalarga, iqtisodiy qarorlar qabul qilishga ro‘baro‘ keladi. Kichik maktab davri bolada ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ilk tushunchalar shakllanadigan bosqichdir. O‘quvchilarga pul, tejash, mehnat va ehtiyoj kabi tushunchalarni alohida fan sifatida emas, balki mavjud fanlar integratsiyasi orqali tushuntirish ta‘lim samaradorligini oshiradi. Fanlar integratsiyasi o‘quvchilarda bilimlarni yaxlit holda qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy savodxonlik – bu faqatgina pulni sanash emas, balki resurslardan oqilona foydalanish, vaqtni boshqarish va mehnatning qadrini tushunish, daromad va xarajatlarimizni to‘g‘ri boshqarishdir. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchi "oilaviy byudjet",

"narx", "foyda", "isrof", "daromad", "xarajat" kabi tushunchalar bilan tanishishi lozim. Bu kabi tushunchalarni 7-10 yoshli bolalar murakkab ilmiy atamalar orqali emas, o'yin va real hayotiy vaziyatlar orqali tezroq o'rganadilar. Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri shaxsda tejamkorlik, iqtisodiy fikrlash fazilatlarini shakllantirish, iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishdir.

Forobiy "Baxt – saodatga erishuv" asarida bolalarga yoshlikdan hayot to'g'risida bilim berish zarurligi, yoshlar kasb- hunar, ish – tajribaga ega bo'lishlari, nazariy bilimlarni o'z vujudlariga singdirgachgina, asta- sekin egallagan kasblarida yutuqqa erishib borishlari, doimo mantiqiy fikrlash yo'li bilan uni amalda sinab ko'rishga odatlanishlari kerakligini uqtiradi. [1, 78-81-b.].

X.J.Xudoyqulov "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari" muammolari ustida ish olib borib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodkorlik hissini o'stirish va iqtisodiy ta'lim- tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari adabiy merosidan foydalanish, bunda davlat iqtisodiy siyosatining o'rni va ahamiyatini yoritib bergan" [2, 235-b.].

Boshlang'ich 1-4-sinf o'quvchilari iqtisodiy bilimdonligini modulli texnologiya asosida rivojlantirishning didaktik asoslarini tadqiq etgan X.A. Umarova, "O'qish", "Ona tili", "Matematika" fanlari mazmunida boshlang'ich sinf o'quvchilariga fanlar mazmunida iqtisodiy bilim berish uslublarini tavsiya etgan [3, 202-b.]. Integratsiya – bir necha fan elementlarini bitta maqsad yo'lida birlashtirishdir. Matematika darslarida iqtisodiy masalalar: Matematika darslarida oddiy misollarni iqtisodiy tomonlama ochib berishimiz mumkin.

● Misol: "Daftar 2000 so'm, ruchka 1500 so'm. Senda 5000 so'm bor. Sen bu pulga bitta daftar sotib olding. Qolgan pulga nechta ruchka sotib olishing mumkin?" Bu kabi masalalar o'quvchida hisob-kitob bilan birga rejalashtirish ko'nikmasini hosil qiladi.

Ona tili va o'qish darslarida: Matnlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy bilim va tarbiya berish. Masalan, "Oltin tarvuz" yoki hunar haqidagi ertaklar orqali mehnatning iqtisodiy foydasi tushuntiriladi.

Tabiiy fanlar (Science):

Tabiiy resurslar (suv, elektr energiyasi, gaz)ni tejash – bu iqtisodiyotning asosi ekanligi uqtiriladi. "Tejamkorlik – eng katta boylik" tamoyili shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishda shunchaki ma'lumot berishning o'zi yetarli emas. Bu yoshdagi bolalarda konkret-obrazli tafakkur ustunlik qiladi.

Fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchi ongida dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarni uyg'otadi. Masalan, "bug'doy" mavzusi o'tilayotganda:

● Tabiiy fan: Bug'doyning o'sishi va parvarishlash jarayoni, uni sug'orish, o'g'it berish jarayonlari (tabiiy resurs).

● Matematika: Hosildorlik va uni sotish orqali keladigan daromadlar (iqtisodiy hisob- kitob).

● Ona tili: "Non - aziz" mavzusidagi matnlar (ma'naviy va iqtisodiy qadriyatlar).

O'quvchi o'zi o'rganayotgan matematik arifmetik amallar (qo'shish, ayirish) hayotda qanday foyda berishini ko'rsa, ularni o'zi qo'llasa, amaliy ahamiyatini to'g'ri anglasa fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Hozirgi yangi avlod darsliklarida (Milliy o'quv dasturi asosida) integratsiya uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Har bir fandagi mavzular o'zida faqat bir tomonlama emas, keng qamrovli ma'lumotlarni aks ettiradi. 2- sinf ona tili darsligida " Zamonaviy texnologiyalar bo'limi " mavzusi berilgan.

Unda quyosh panellari haqidagi matn mavjud. Bu matn bolaga faqat to'g'ri yozish, matnni tahlil qilishni emas, quyosh panellari va ularning ahamiyati, tabiatga foydasi, iqtisodiy ahamiyati haqida ham dunyoqarashlari shakllanishiga turtki bo'ladi.

● 2-sinf Matematika: Har bir asosiy mavzuga qo'shimcha ravishda yondosh mavzu beriladi. Yondosh mavzu asosan olingan bilimlarini hayot bilan amaliy tarzda bog'lash, o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yordam beradi. "Pul birliklari" mavzusi.

Bunda o'quvchi ongida faqat raqamlar, quruq ma'lumotlar bilan cheklanmay, xarid qilish madaniyati, pulni to'g'ri sarflash, tejamkorlik kabi tushunchalar shakllanib boradi.

● 3-sinf Tarbiya: "Tejamkorlik va isrofgarchilik" mavzusi. Bu mavzuni matematika bilan bog'lab, bir oyda isrof qilingan suv yoki elektr energiyasining summasini hisoblash mumkin. Isrof qilingan suv (litr)  $\times$  narx = oilaviy budjetga zarar;

U shbu maqolada amaliy tajriba sifatida quyidagi dars modelini misol sifatida keltirishimiz mumkin:

Mavzu: "Sayohatga tayyorgarlik" (Integratsiyalashgan dars)

Fanlar: Matematika, texnologiya, tabiiy fan.

Darsning borishi:

1. Muammo qo'yish: "Biz Samarqandga sayohatga bormoqchimiz. Bizga qancha miqdorda mablag' kerak bo'ladi?"

2. Matematik hisob: Poyezd chiptasi narxi, mehmonxona va ovqatlanish xarajatlari, boshqa mayda xarajatlar qo'shiladi.

3. Iqtisodiy tahlil: "Qaysi xarajatlardan voz kechish orqali sayohatni arzonroq, tejamkorona o'tkazish mumkin?" (tanlov muammosi).

4. Texnologiya (ijodiy ish): Sayohat uchun kerakli buyumlar ro'yxatini tuzish yoki hamyon, foydalanish uchun kichkina sumkacha yasash.

Iqtisodiy savodxonlik tushunchasi faqat maktabda emas, balki oilada ham tushuntirilib, amaliy tarzda hayotiy vaziyatlarda ifodalanib, mustahkamlanib borilishi lozim. Buning uchun quyidagi vaziyatlarni qo'llashimiz mumkin:

- bolaga oz miqdordagi "cho'ntak puli" berish va uni to'g'ri sarflashni o'rgatish;

- birgalikda bozorlik qilish va narxlarni solishtirish, taqqoslash, narxlarni tushirish jarayonidagi munosabatlar, ehtiyoj uchun zarur bo'lgan narsalarni hohishlarimiz ichidan muqobil tanlab olish;

Bolalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish jarayonlarini chet el ta'lim muhitida ko'rib chiqamiz.

1. Finlyandiya tajribasi: Fin maktablarida "Hayotiy ko'nikmalar" darsi doirasida o'quvchilarga soliqlar, bank tizimi va kredit tushunchalari o'yinlar orqali o'rgatib boriladi.

Ular turli loyihalar orqali kichik shaharcha modelida turli kasblarni bajarib, ish haqi oladilar va uni sarflaydilar.

2. Singapur tajribasi: Matematika darslarining 30% qismi moliyaviy hisob-kitoblarga asoslangan. Bu o'quvchilarda yoshligidanoq "investitsiya", "sarmoya" va "jamg'arma" tushunchalarini shakllantiradi.

3. Yaponiy va Xitoy maktablarida farroshlar yo'q. Ularda tozalik, taom tayyorlash, mahsulotlarni yetishtirish, quruvchilik, hunarmandchilik ishlari bolalarga kichik maktab yoshidan o'rgatib boriladi.

O'quvchilarda yaratuvchilik, ixtiro qilish ruhi yoshligidan shakllantirib boriladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu tajribalarni fanlar integratsiyasi orqali joriy etish milliy iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsiyani AKT bilan bog'lash zarur:

- Virtual do'konlar: Sinf xonasida planshet yoki interaktiv doska yordamida virtual xarid jarayonini simulyatsiya qilish.

- Mobil ilovalar: Bolalar uchun mo'ljallangan iqtisodiy, matematik o'yinlarning ta'limiy elementlaridan foydalanish.

- QR-kodlar: Darslikdagi masalalar yonida mahsulotning narxi va tarkibi, tayyorlanish jarayonlari haqida ma'lumot beruvchi QR-kodlarni joylashtirish (bu matematika va texnologiya fani integratsiyasi). Boshlang'ich sinf o'qituvchisi iqtisodiy tushunchalarni singdirishda quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

1. Soddalik: Murakkab iqtisodiy atamalarni bolalar tiliga moslashtirish, ularni kundalik hayot bilan bog'lash (masalan, "inflyatsiya" emas, "narxlarning ko'tarilishi").

2. Izchillik: 1-sinfda "ehtiyoj" tushunchasidan boshlab, 4-sinfda "tadbirkorlik", "daromad" tushunchasigacha bosqichma-bosqich borish.

3. Hayotiylik: Har bir misol o'quvchining kundalik hayotida uchraydigan buyumlar (non, daftar, o'yinchoq) misolida bo'lishi, o'quvchi amalda uni qo'llay olishi, mantiqiy fikrga ega bo'lishi lozim.

Taklif: "matematika" darsliklarida mantiqiy masalalar, oilaviy byudjet va xarajatlar, daromadlar haqidagi misol va masalalarni ko'proq berib bo'rish; Taklif: "Texnologiya" darslarida chiqindi materiallardan yangi buyum yasab, uning "tannarxi"ni hisoblashni o'rgatish, chiqindini qayta ishlash orqali tabiatga va byudjetga keladigan foyda haqida amaliy misollar orqali tushunchalar berish.

Tarbiya darsligida Shvetsiya davlati boshqa davlatlardan chiqindi olib ketishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Bu orqali u judayam katta daromad olishi, unga haq to'lanishi va olib ketgan chiqindisini qayta ishlab foyda ko'rish haqida aytib o'tilgan.

Darsliklarimizda bu kabi ma'lumotlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Har bir darsni integratsiya qilishimiz uchun yetarlicha ma'lumotlar, topshiriqlar, loyihalar berilgan.

Buni aynan Navro'z bayrami misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'quvchilarga "Navro'z saylidagi chiqindilar" mavzusida loyi ishlab chiqishlari topshirig'i beriladi. Loyiha mavzusini "Toza bayram-go'zal tabiat" deb nomlashimiz mumkin.

Muammo: Navro‘z saylidan keyin istirohat bog‘larida juda ko‘plab qog‘ozlar, oziq-ovqat qoldiqlari, plastik idishlar qolib ketadi.

Bu esa tabiatga, atrof- muhitga zarar yetkazadi.

Bu muammoni yechimini diagramma misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Matematik tahlil: Saylga kelgan 50 nafar insonning har biri bittadan plastik stakan va 2tadan qog‘oz sochiq chiqindisini tashlasa, jami qancha chiqindi to‘planadi?

Keyingi topshiriqni ona tili faniga mos holda berishimiz mumkin.

Misol uchun, odamlarni tabiatni asrashga undovchi qiziqarli shiorlar yozing.

Maqsad o‘quvchilarning nutq boyligini , ijtimoiy mas‘uliyatini oshirish. Muhandislik asosida chiqindilarni saralash uchun maxsus idishlar chizishadi.

Qog‘oz uchun, plastik uchun, metall chiqindilari uchun maxsus rangdagi chiqindi idishlari loyihasini yaratadilar.

Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning muammoga konstruktiv v aijodiy yechimlar topish ko‘nikmasini shakllanishiga xizmat qiladi.

Darsda rolli o‘yinlar tashkil etish orqali ham o‘quvchilardagi iqtisodiy savodxonlikni mustahkamlashimiz mumkin.

Masalan, “sotuvchi va xaridor” o‘yinini o‘tkazishimiz mumkin.

O‘yin orqali bolalar savdo- sotiq jarayonida ishtirok etishadi va iqtisodiy, matematik bilimlarga ega bo‘lishadi.

Nutqiy kompetensiyalari ham rivojlanishi uchun bu kabi rolli o‘yinlar yaxshi samara beradi.

Ushbu tadqiqot natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich ta‘limda fanlar integratsiyasi shunchaki o‘qitish usuli emas, balki o‘quvchini real hayotga tayyorlashning eng samarali vositasidir.

- Matematika – hisob-kitobni;
- Ona tili – iqtisodiy muloqot, nutq madaniyatini;
- Tarbiya – tejamkorlik va ma‘naviy mas‘uliyatni;
- Tabiiy fanlar – resurslarni qadrlashni, ularni asrab- avaylash, ulardan oqilona foydalanishni o‘rgatadi.

Bunday kompleks yondashuv kelajakda o‘z mablag‘larini oqilona boshqara oladigan, iqtisodiy savodxonligi yuqori bo‘lgan, tadbirkorlik qobiliyatiga ega, boshqa mamlakatlardan investitsiya va sarmoyalarni jalb qiluvchi va davlat iqtisodiyotini rivojlanish bosqichiga olib chiquvchi, resurslardan o‘rinli, oqilona foydalanuvchi , har tomonlama bilimlari yuqori bo‘lgan komil insonni tarbiyalaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". - T.: "O‘zbekiston", 2021.
2. Abdullayeva Q. va boshqalar. "Boshlang‘ich ta‘limda integratsiya". Metodik qo‘llanma.
3. PISA xalqaro baholash dasturi qo‘llanmalari (Moliyaviy savodxonlik bo‘limi).
4. Standard of Financial Literacy for Schools (International Standards).

5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.-222- b.- 78-81-b.

6.Xudoyqulov X.J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. Ped. fan.nom. ... diss. – T. : 2008. – B. 235.

7. Umarova X.A. Boshlang‘ich ta‘limda iqtisodiy bilimlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan modulli texnologiyalarning didaktik asoslari: Ped. Fan. nom. ... diss. – T.:2006. –B.202.